

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 15 (1614), 2026-yil 23-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TINCHLIK KENGASHI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TASHABBUSLARIGA HAMOHANGDIR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 21-22-yanvar kunlari Amerika yetakchisi tashabbusi bilan tashkil etilgan Tinchlik kengashi nizomini imzolash marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Shveysariyada bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 22-yanvar kuni Davos shahrida Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimida ishtirok etdi. AQSH Prezidenti Donald Tramp raisligida

o‘tgan tadbirda Argentina, Armaniston, Bahrayn, Bolgariya, Indoneziya, Iordaniya, Marokash, Mo‘g‘uliston, Ozarbayjon, Paragvay, Pokiston, Qatar, Qozog‘iston,

Saudiya Arabistoni, Turkiya, Vengriya va boshqa davlatlar rahbarlari, bosh vazirlari va tashqi ishlar vazirlari ham qatnashdi.

Tinchlik kengashining tashkil etilishi

O‘zbekiston tashqi siyosatining tinchlikni ta’minlash borasidagi tashabbuslari va ko‘p qirrali hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalariga mosdir. Yangi tuzilma BMTning Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi bilan qo‘llab-quvvatlangan G‘azo sektoridagi mojaroni tugatish bo‘yicha kompleks rejani amalga oshirish doirasida shakllantirilmoqda.

Tinchlik kengashi mojaraning keskinlashuv xavfini kamaytirish, G‘azo sektorida iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Bu farovon iqtisodiyot va tinch-osoyishta hayotga ega Yangi G‘azoni barpo etish, istiqbolida Falastin davlatini tuzish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

Kengash tarkibidan jahonning turli mamlakatlardan nufuzli va ta’sirga ega yetakchilar o‘rin oldi.

Kengash Nizomini imzolab, O‘zbekiston uni ta’sis etgan davlatlardan biriga aylandi. Bu mamlakatimizning kengash faoliyatida izchil ishtirok etishga hamda barcha ta’sischi davlatlar va xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda uning vakolatlarini hayotga tatbiq etishda amaliy hissa qo‘shishga tayyorligini anglatadi.

Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban o‘rtasida muloqot bo‘lib o‘tdi.

Yetakchilar do‘stona ruhda o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

Ko‘p tomonlama, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik istiqbollarga alohida e’tibor qaratildi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti “Blackrock” kompaniyasi direktorlar kengashi a’zosi va katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesi bilan uchrashdi.

Ushbu yetakchi kompaniya bilan investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari va ilgari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

“Blackrock” kompaniyasining mamlakatimizdagi ustuvor loyihalarda ishtirok etish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Kompaniyaning O‘zbekistondagi bir qator korxonalar kapitaliga kirish, qo‘shma investitsiya mexanizmlarini ishlab chiqish va mamlakat investitsiya muhitini yaxshilash uchun xalqaro ekspertizani jalb qilish bo‘yicha tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

Davosdagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Mazkur yetakchi moliya instituti bilan strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi.

Bankning mamlakatimiz bilan hamkorligi barqaror strategik tushga ega. O‘zbekiston

YTTBning mintaqadagi eng yirik hamkori bo‘lib qolmoqda. Bankning investitsiyalari hajmi qariyb 7 milliard dollarga yetdi.

2025-yilda amaliyotlar, shu jumladan, xususiy sektorga yo‘naltirilgan mablag‘larning hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

YTTBning “yashil” energiyani rivojlantirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik dasturlarni amalga oshirish, moliya bozorini isloh qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasi yuqori baholandi.

Joriy yil uchun hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, xususiy sektor va infratuzilmani rivojlantirish, temir yo‘l transportini raqamli transformatsiya qilish hamda boshqa masalalar belgilab olindi.

Ayollar va yoshlarni zamonaviy kasblar va biznesga o‘qitish bo‘yicha dasturlarni davom ettirishga alohida e’tibor qaratildi.

Davosdagi tadbirlar doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich, AQSH savdo vaziri Govard Latnik, Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri, Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Bler bilan ham suhbatlar o‘tkazdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shveysariyaga amaliy tashrfi yakunlandi.

O‘ZA



BUGUNNING GAPI

Bugungi global iqtisodiy raqobat sharoitida investitsiyalar har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘lishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va texnologik taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kapital uchun kurash kuchaygan bir paytda O‘zbekiston o‘zining ochiqlik siyosati va qat’iy islohotlari bilan nafaqat mintaqada, balki xalqaro moliya bozorlarida munosib o‘rin egallashga hamda yangi iqtisodiy markazga aylanish sari dadil intilmoqda.



Mamlakatimizda Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi va talabi bilan investitsiya muhitini yaxshilash borasida tarixiy ahamiyatga ega tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Ortga qaytmas islohotlar natijasida mamlakatimizga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin barqaror o‘shib bormoqda. Xususan, 2025-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi rekord darajaga — 43,1 milliard dollarga yetdi, jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu raqamlar — xalqaro biznes hamjamiyatining O‘zbekiston kelajagiga mustahkam ishonchining yorqin dalilidir.

Davlatimiz rahbari bu haqda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida alohida to‘xtalib, “Yurtimizdagi qulay biznes muhiti,

demografik o‘shish, inson kapitaliga berilayotgan e’tibor — O‘zbekistonda investorlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biriga aylantirmoqda. Masalan, biz to‘qqiz yilda barcha iqtisodiyot tarmoqlariga 130 milliard dollarlik xorijiy investitsiya olib keldik. Joriy yilning o‘zida chet ellik hamkorlarimiz bilan yana 140 milliard dollarlik yangi investitsiyaviy kelishuvlarga erishdik”, dedi. 140 milliard dollarlik kelishuv bu — shunchaki statistika emas, bu O‘zbekistonning global investitsiya xabiga aylanayotganining amaliy isbotidir.

Mazkur ijobiy tendensiyalar takomillashtirilayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘z ifodasini topib, investitsiya siyosatini yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi.

Davomi 3-beta



MUNOSABAT

Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tarixiy Murojaatnomasi nafaqat o‘tgan davr sarhisobi, balki millatimizning kelgusi taqdirini belgilab beruvchi strategik yo‘l xaritasi, yangi uyg‘onish davrining manifesti sifatida jarangladi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

YANGILANAYOTGAN DAVR VA ULKAN MARRALAR FALSAFASI:

MILLAT KELAJAGI O‘ZGARISHLAR SHABBODASIDA

Unda ilgari surilgan g‘oyalar, xususan, erishilgan ulkan natijalar va belgilangan yangi ustuvor vazifalar, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etayotgani haqidagi fikrlar har bir ziyoli va vatanparvar inson qalbid aks sado berishni tabiiy.

Mamlakatimizning kelgusi yillardagi taraqqiyotiga daxldor ushbu hujjatning keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi hamda aholining fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishi demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi eng oqilona va adolatli yondashuvdir. Zero, xalqning o‘zi islohotlarning ham tashabbuskori, ham ijrochisi, ham baholovchisi bo‘lishi yangi O‘zbekiston siyosatining o‘zagini tashkil etadi.

Davomi 3-beta

SHAFFOFLIK, ANIQLIK VA INTIZOM

ENERGIYA SAMARADORLIGINING ZAMINI



4

HAR BIR MAHALLA XAVFSIZ HUDUDGA AYLANADI

BU BORADA YANGIHAYOT TUMANIDA QANDAY SA‘Y-HARAKATLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

Tinchlik – bebaho ne‘mat, ulug‘ saodat. Ayniqsa, bugungi tinch zamonada bu ne‘matning qadri yanada oshmoqda. Zero, tinchlik bor joyda yuksalish, taraqqiyot bo‘ladi.

Davomi 2-beta

Shu bois, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni profilaktika choralarini tizim orqali hal qilish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissinin shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar ko‘rilmogda.

Bu boradagi ishlar bevosita mahalla darajasida tashkil etilayotgani jamiyatimizda inson qadriini yuksaltirishga yo‘naltirilgan islohotlardan har bir inson bahramand bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilayotir.



Prezidentimiz milliy birlik va siyosiy barqarorlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Fikrlar xilma-xilligi demokratiyaning belgisi ekani, biroq Vatan manfaati umumiy mezon bo'lishi kerakligi aytiladi.

2026-yil 23-yanvar, 15-son



TAHLIL

NATIJA UCHUN ISHLASH FURSATI

Gulnora MA'RUFOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Prezidentimizning parlament hamda yurtdoshlarimizga yo'llagan Murojaatnomasi navbatdagi siyosiy nutq yoki hisobot emas, balki davlat taraqqiyotini boshqarishning mutlaqo yangi formatidir. Zero, davlatning kelgusi harakati, jamiyat bilan munosabati va siyosiy mas'uliyatini ochiq belgilab bergan konseptual hujjat sifatida maydonga chiqdi. Shu ma'noda, u islohotlarning maqsadi, yo'nalishi va ijro mexanizmlarini yaxlit tizimga solgan strategik yo'l xaritasidir.

Murojaatnomaning eng muhim jihati shundaki, u xolis tahlilga asoslangan. Davlatimiz rahbari iqtisodiy xavflar, geosiyosiy keskinlik, ijtimoiy tengsizlik kabi murakkab masalalarni ro'y-rost aytdi. Chunki haqiqiy islohot muammoni tan olishdan boshlanadi. Bu yondashuv davlat boshqaruvida ochiqlik


va mas'uliyatning yangi standartlarini belgilab berdi.

Mazkur hujjat markazida davlat va jamiyat o'rtasidagi yangi ijtimoiy shartnoma turadi. Davlat xalq uchun ishlashi shart degan fikr deklaratsiya emas, amaliy siyosat sifatida ilgari surildi. So'nggi to'qqiz yilda 8,5 milliondan



bois, texnologik va innovatsion rivojlanish modeli tanlandi. 2030-yilgacha iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirish vazifasi qo'yildi. Bu maqsad inson kapitaliga, ilm-fanga, texnologiya va raqamli iqtisodiyotga tayanadi. Masalan, energiya samaradorligining 13 foiz oshirilishi bir yilda 1 milliard dollar qo'shilgan qiymat berdi. Bu raqam islohotlar to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi.

Yoshlar masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etdi. Har yili mehnat bozoriga 1 milliondan ortiq yigit-qiz kirib kelayotgan bir paytda yoshlar masalasi faqat ijtimoiy emas, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlik masalasiga aylanmoqda. Shuning uchun yoshlar



ortiq fuqaro kambag'allikdan chiqarilgani, kambag'allik darajasi qariyb ikki barobar qisqargani bu siyosatning real natijasidir. Mazkur yutuqlar markazdan turib boshqarish hisobiga emas, balki mahalla instituti orqali ta'minlandi. Umuman, mahalla ijtimoiy siyosatning asosiy bo'g'iniga aylandi. 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi davlat boshqaruvi falsafasi o'zgariganini yaqqol ko'rsatadi. Islohot insonga yaqinlashdi, uning kundalik hayotida sezila boshladi.

Iqtisodiy sohada Murojaatnoma sifat jihatidan yangi yondashuvni belgilab berdi. O'sishning o'zi yetarli emasligi, sifatli va barqaror o'sish zarurligi ochiq ta'kidlandi. Shu

tadbirkorligiga 43 trillion so'm yo'naltirilishi, startaplar va AT loyihalarini qo'llab-quvvatlash, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritish davlatning yoshlarga ishonchi va e'tibori yuqori ekanini anglatadi. Binobarin, yoshlarga islohotlarning obyekti emas, balki asosiy drayveri sifatida qaralmoqda.

Siyosiy partiyalar uchun ham aniq xulosalar bildirildi. Partiya faqat saylov oldidan faollashadigan tuzilma bo'lmagligi kerak, islohotlarning ijtimoiy tayanchi, jamoatchilik nazoratining faol ishtirokchisi bo'lishi shart. Qonunchilik tashabbusi, parlament nazorati, joylardagi muammolarni yuqori darajaga olib chiqish partiyalarning amaliy qiymatini

belgilaydigan mezonlardir. Agar partiyalar bu vazifalarni bajarmasa, ularga jamiyatdagi ishonch pasayadi.

Prezidentimiz milliy birlik va siyosiy barqarorlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Fikrlar xilma-xilligi demokratiyaning belgisi ekani, biroq Vatan manfaati umumiy mezon bo'lishi kerakligi aytiladi. Mahalla bu umumiyligni saqlab turadigan institutdir. Ijtimoiy so'rovlariga ko'ra, aholining 90 foizi o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb his qilishi jamiyat barqarorligining mustahkam ijtimoiy poydevorga ega ekanini ko'rsatadi.

Murojaatnomaning yana bir muhim jihati, davlat boshqaruvida natijadorlik mezonlarining keskin kuchaytirilganidir. Ilgari qaror qabul qilishning o'zi natija hisoblangan bo'lsa, endi qarorning ijrosi, joylarda qanday samara bergani asosiy baholash mezoniga aylanmoqda. Prezidentimiz hisobot uchun emas, natija uchun ishlash davri boshlanganini ta'kidladi. Bu esa butun boshqaruv tizimida fikrlash va ishlash tarzimizni o'zgartirishni talab qiladi.

Ayniqsa, parlament vakillik organlari oldidagi vazifalar mutlaqo yangicha mazmun kasb etmoqda. Endi deputat va senatorlar faqat qonun qabul qiluvchi emas, balki islohotlarning amalga oshirishini nazorat qiluvchi siyosiy institut sifatida maydonga chiqmoqda. Murojaatnomada parlament nazoratini kuchaytirish, ijro hokimiyati faoliyatiga xolis baho berish, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish belgilandi. Bu — davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga qaratilgan tizimli yondashuv.

Ijtimoiy sohada ham yangi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Davlatning ijtimoiy majburiyati ko'lami kengaymoqda. Bu ijtimoiy boqimandalikni emas, insonning o'z salohiyatini ro'yogga chiqarishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Kambag'allikni qisqartirish siyosati nafaqat moddiy yordam, balki ta'lim, kasbga o'qitish, tadbirkorlikka jalb etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Ta'lim sohasiga e'tibor ham Murojaatnomaning strategik mohiyatini ochib berdi. Ta'lim xarajat emas, balki investitsiya ekani qat'iy belgilab qo'yildi. Maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytish, oliy ta'limga kirish imkoniyatlari oshishi, zamonaviy kasblarga yo'naltirilgan o'quv dasturlari joriy etilishi inson kapitali sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Chunki raqobatbardosh iqtisodiyot faqat bilimli va kreativ fikrli avlod orqali shakllanadi.

Tibbiyot sohasidagi islohotlar ham inson manfaatiga qaratilgan. Birlamchi tibbiy xizmatni kuchaytirish, profilaktikaga e'tiborni oshirish, tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish orqali sog'lom jamiyatni shakllantirish maqsad qilingan. Bu yondashuv davlat xarajatini optimallashtirish bilan birga aholining hayoti sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Murojaatnomada tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlar ham aniq belgilab berildi. O'zbekiston ochiq, pragmatik va muvozanatli tashqi siyosat yuritmoqda. Hech bir blokka qaram bo'lmay, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda hamkorlik qilish tamoyili ustuvor. Bu siyosat xalqaro maydonda mamlakat nufuzini, investitsiya jozibadorligini oshirdi va iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

Xususan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, suveren reytingning yaxshilanishi davlat moliyasiga ishonchni mustahkamladi. Bu esa uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin hozirlamoqda.

Qonun ustuvorligi va sud-huquq islohotlari ham alohida o'rinda tutdi. Adolatli sud tizimimiz iqtisodiy taraqqiyot ham, ijtimoiy barqarorlik ham bo'lmagligi qayd etildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Bu esa jamiyatda adolat hissini kuchaytiradi.

Murojaatnomaning umumiy ruhi bir fikrga borib taqaladi: davlat islohot o'tkazadigan subyekti, jamiyat esa faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Agar jamiyat faol bo'lmasa, eng to'g'ri strategiya ham ishlamaydi. Shuning uchun jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari rolini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, Murojaatnoma har birimiz uchun siyosiy chaqiriqdir. Senator uchun qonun ijodkorligi va nazoratda mas'uliyatni oshirish, partiya vakillari uchun jamiyat bilan ishlash, real muammolarni hal qilish, yoshlar uchun o'z taqdiri va mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni his qilish chaqirig'i.

Agar biz Murojaatnomani faqat muhokama qilsak, u o'z ahamiyatini yo'qotadi. Hayotga tatbiq etsak, yangi O'zbekiston taraqqiyotining haqiqiy strategik yo'l xaritasiga aylanadi. Ana shu tanlov bugun har birimizning oldimizda turibdi.

HAR BIR MAHALLA XAVFSIZ HUDUDGA AYLANADI

BU BORADA YANGIHAYOT TUMANIDA QANDAY SA'Y-HARAKATLAR AMALGA OSHIRILMOQDA?

Boshlanishi 1-betda

Natijada mahallalarda jinoyatchilik kamaymoqda, tinch-totuvlik muhiti aholining yaratuvchilik, bunyodkorlik salohiyati yuksalishiga zamin yaratmoqda.

Joriy yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlangani ushbu ezu ishlariga yangicha ruh baxsh etmoqda. Zero, mahalla milliy urf-odat va an'analimiz beshigi, odamlarni o'zaro bir-biri bilan uyg'un, bahamjihat yashashga o'rgatadigan, inson ong-tafakkuriga vatan deb atalmish ulug'vor tuyg'uni jo etadigan betakror maskandir. Shu bois, mahalla institutiga milliy davlatchilgimizning asosiy quyi bo'g'ini sifatida qaralib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini kuchaytirish borasida keng ko'lamli va puxta o'ylangan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida bu yo'nalish bo'yicha istiqboldagi vazifalarga to'xtalib, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go'zal va obod qilish borasidagi ishlar izchil davom ettirilishini alohida ta'kidladi. Xususan, 2026-yilda amalga oshiriladigan dasturim birinchi ustuvor yo'nalishi mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirishdan iborat bo'ladi.

Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va jinoyatchilikning oldini olish masalasi davlatimiz siyosatining muhim qismi sifatida belgilanib, so'nggi yillarda bu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etishda o'ziga xos tizim yaratildi. Jumladan, Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan Yangihayot tumanida ham muayyan ishlar qilindi.

Xususan, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, jamoat joylari xatovdan o'tkazilib, ular atrofidagi xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashvish tugmalari o'rnatildi va texnik qo'riqlash markazlariga ulandi. Kriminogen vaziyat og'ir mahallalardagi fuqarolar bandligini ta'minlash, ijtimoiy ko'makka muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada qariyb 1,5 ming kishi ishli bo'ldi, ijtimoiy ko'makka muhtoj 1700 dan ko'proq



Alisher HOTAMOV,
Toshkent shahar Yangihayot tumani hokimi o'rinbosari

xotin-qizning muammosi hal etildi. Tazyiq va zo'rvonlikka uchragan 180 xotin-qizga himoya orderi berildi.

Maktablarda o'tkazilgan "Davomat", "O'quvchi", "O'smir" tadbirlari davomida ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar farzandlarining muammolarini hal qilishga ko'maklashildi. O'quvchilarning muammolarini joyida hal qilish bo'yicha har oyda tuman tashkilotlari rahbarlari ishtirokida "Rahbar va yoshlar uchrashuvlari" o'tkazildi. "Og'ir toifa"dagi yoshlarning 120 nafari kasb-hunarga, 267 nafari chet tillarga o'qitildi, 298 nafarining bandligi ta'minlandi. Yoshlarning hayotida munosib o'rin egallashiga ko'maklashish, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo'yicha yuzdan ko'proq tadbir o'tkazildi.



Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan 155 fuqaro bilan vakolatli idoralar, sobaviy xizmatlar va "mahalla yetilligi" hamkorlikda manzilli ishlar olib bordi. Xorijga ishga ketadigan yoshlar orasida rasmiy migratsiya tashkilotlari xizmatidan foydalanish targ'ib etilyapti.

"Xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etish, jamoat tartibini saqlash, kriminogen vaziyat barqarorligi hamda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida aholi gavjum joylar, ko'chalar, ko'p qavatli uylarning hovlilari, mahallalarning kirish-chiqish joylariga kuzatuv kameralari o'rnatildi. Shuningdek, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kirish-chiqish joylari hamda sport maydonchalarida ham zamonaviy kuzatuv vositalari qo'yildi.

Jamoat tartibini saqlashda davlat organlari, keng jamoatchilik va fuqarolar bilan hamkorlik samarali kechmoqda. Aholining firibgarlik jinoyatlari qurboniga aylanishining oldini olish maqsadida 500 ga yaqin profilaktik tadbir o'tkazildi. Aholida kibernetikaniyatni shakllantirish hamda ushbu sohada sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish maqsadida targ'ibot ishlari olib borildi.

Oila-turmush doirasida ellikka yaqin nizoli masala ko'rib chiqilib, muhokama qilindi. Shu asosda notinch oilalardagi muhit yaxshilanib, ajralib ketish arafasida turgan bir qancha oila yarashtrildi. Tabiiyki, bu nafaqat bir oila, balki butun millat taqdiriga daxldor katta yutuqdir. Zero, oila tinch bo'lsa, uning bag'rida yoshlar bekamu ko'st kamolga yetadi. Bu baxtiyorlik muhiti mahalla va jamiyatda osoyishtalik qaror topishiga zamin yaratadi.

O'tgan yili mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish



bo'yicha qilingan ishlar bu borada mamlakatimiz bo'ylab muhim natijalarga zamin bo'ldi. Xususan, yurtimizda jinoyatchilik 1,5 barobar kamaydi. Tumanimiz bu borada Toshkent shahrida yetakchi o'rinlarni egallagani bejiz emas.

Endilikda bu jabhadagi ishlar izchil davom ettirilib, yaxlit va manzilli ishlash tizimiga o'tiladi. Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturlamal bo'lmoqda.

Hujjatga muvofiq, har bir mahallada kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi omillar bilan ishlashning mahallalar kesimida har choraklik manzilli chora-tadbirlari belgilanadi. Aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish orqali oldini olish mumkin bo'lgan har bir jinoyat bo'yicha mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish, ijtimoiy profilaktika subyektlari tomonidan bajarilgan tadbirlar samaradorligi yuzasidan qat'iy so'rov tizimi yo'lga qo'yiladi.

Endilikda huquqbuzarliklarning oldini olish faqat huquq-tartibot idoralarning emas, balki butun jamiyatning ishiga aylantiriladi. Shu maqsadga yaxlit va manzilli tizim joriy etilib, har bir mahallada jinoyatchilik holati, aholining ijtimoiy muammolari, xavf guruhlari bo'yicha alohida tahlil yuritish yo'lga qo'yiladi. Ana shunday muhim vazifalarni o'z vaqtida bajarish va mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkil etish maqsadida hududlar mas'ul rahbarlar va muassasalarga nomma-nom biriktiriladi.

Shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida hamda ayollar va yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni "ilmiy xulosa — tavsiya — natija" tamoyili asosida joylarga chiqqan holda maqsadli ilmiy-amaliy o'rganish orqali samarali tashkiliy-huquqiy choralar belgilanadi. Mahallalardagi jamoat joylarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish yo'nalishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy profilaktikaga mas'ul idoralar va muassasalar tomonidan ko'rilayotgan choralarining

samaradorligi ustidan elektron nazorat tizimi keng joriy etiladi. Bunga misol tariqasida tumanlarda tashkil etiladigan situatsion markazlarni keltirish mumkin.

Yana bir muhim masala, idoralararo hamkorlik hisoblanadi. Ayni paytda bu jabhada hamkorlik amalda yo'lga qo'yilgan, ammo ko'proq tavsiyaviy xarakterda edi. Endi tizimli va aniq vazifalar belgilanib, ichki ishlar organlari, prokuratura, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va mahalla tizimlari bir zanjirga ulanadi. Zero, jamoat tartibini saqlashda har bir masalaning o'z vaqtida yechilishi uchun o'zaro hamkorlik nihoyatda muhim.

Qilingan ishlarning nazorat va hisobotini yuritish masalasi ham yangicha yondashuv talab etadi. Bu borada "natija bo'lmasa, javobgarlik bor" tamoyili qat'iy joriy etilib, bajarilgan ishlar tahlili, reytingi, hisoboti tizimli yuritiladi. Past natija ko'rsatgan rahbarlarga intizomiy choralar ko'rilishi ko'zda tutiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha yondashuvni o'zgartirish ham muhim talablardan biri. Bu borada xavfni oldindan aniqlash va muammo kelib chiqmasidan oldin yechish tamoyilini yo'lga qo'yish ayni muddao. Buning uchun reaktivdan proaktiv tizimga o'tib ishlash bugungi davrning muhim talabidir.

Jamiyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy loyihalarining samarasi katta. Misol uchun, yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga erishish mumkin. Bu esa yangi ish o'rinlari ko'payishiga zamin yaratadi. "Soya"da faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni yuzaga chiqarish orqali ushbu korxonalarda ishlayotgan ishchilarning davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy-iqtisodiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Bularning barchasi, avvalo, inson manfaatiga, ischi va xodimlarning qonuniy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, tumanimizni yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha namunali hududga aylantirishni ustuvor vazifalardan biri etib belgilaganmiz. Mutaxassislarning bu sohada o'tkazgan tahlillari ko'rsatayaptiki, agar bu jabhadagi ishlar manzilli tashkil etilsa, byudjetga qo'shimcha 34,3 milliard so'm soliq tushumi bo'ladi. Tabiiyki, bu mablag', avvalo, hudud infratuzilmasi yaxshilanishi, aholi farovonligi oshishiga zamin yaratadi. Shu maqsadga tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida topshiriqlar ijrosi doimiy monitoring qilib boriladi.

Bu chora-tadbirlar mahallalarni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuvlarni joriy etish va amalga oshirish, joylarda aholini qiyayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va oqilona yechim topish, har bir yurtdoshimiz islohotlar natijasini kundalik hayotida yanada ko'proq his qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda samara beradi. Mahallada boshlangan bunday ulkan evrilishlar har bir soha, har bir yo'nalishda yangi yutuqlarga zamin hozirlaydi, oldimizga qo'yilgan ezuq maqsad — obod, erkin, farovon yangi O'zbekistonni barpo etishda poydevor bo'ladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



MUNOSABAT

YANGILANAYOTGAN DAVR VA ULKAN MARRALAR FALSAFASI:

MILLAT KELAJAGI O'ZGARISHLAR SHABBODASIDA



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

► Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, 2023-yilda qabul qilingan mazkur dasturiy hujjat barcha soha va tarmoqlarda ulkan natijalarga zamin bo'lib kelayotganini inkor etib bo'lmaydi. Raqamlar shunchaki quruq statistika emas, ular ortida millionlab insonlar taqdiri, xalqimizning fidokorona mehnati va davlat rahbarining qat'iy siyosiy irodasi mujassam. Keling, birgina iqtisodiy ko'rsatkichlarga e'tibor qarataylik: kambag'allik darajasi 11 foizdan 6,8 foizga, ishsizlik esa 6,8 foizdan 4,9 foizga tushirilishi shunchaki foizlar o'zgarishi emas, balki yuz minglab oilalarga kirib borgan baraka, dasturxonlardagi to'kinlik va kelajakka ishonchning mustahkamlanishidir. Yalpi ichki mahsulot hajmi 103 milliard dollardan 145 milliard dollarga yetishi esa mamlakatimiz iqtisodiy qudratining sezilarli yuksalganini, O'zbekistonning jahon iqtisodiy arenasida o'z o'rniga ega bo'lib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Eksport hajmi 25 milliard dollardan 33,4 milliard dollarga, xorijiy investitsiya miqdori 17 milliard dollardan 43 milliard dollarga oshishi dunyo hamjamiyatining O'zbekistonga ishonchini ortib borayotganidan dalolat. Investitsiya ishonch kapitalidir. Xorijiy hamkorlarimiz yurtimizdagi barqarorlik, ochliklik va shaffoflik siyosatiga ishonib, o'z mablag'ini kiritayotgani quvonarli hol. Shuningdek, xorijlik sayyohlar sonining 6,6 milliondan 8,6 million nafarga yetishi 2017-yildan buyon turizmni rivojlantirish, boy madaniy merosimiz va turizm salohiyatining dunyo bo'ylab keng targ'ib etish bo'yicha yuritilayotgan siyosat samarasidir.

Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, xususan, ta'lim tizimidagi islohotlar alohida e'tirofqa

loiyiq. Maktabgacha ta'lim qamrovining 72 foizdan 78 foizga, oliy ta'lim qamrovining esa 42 foizga yetkazilishi kelajak avlod kamoloti uchun qo'yilgan mustahkam poydevor hisoblanadi. Zero, faqat ma'rifatli jamiyatgina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o'tatgan davlatlar sonining 144 tadan 164 taga yetishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi va obro'-e'tibori tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Shubhasiz, bu raqamlar har birimizga g'unur va iftixor bag'ishlaydi.

Murojaatnomada keltirilgan yana bir muhim jihat borki, u kishini chuqur mushohada qilishga undaydi. Ikki yil avval 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan edi. Biroq bugungi shiddatli rivojlanish sur'atlari bu marraga 2026-yilning o'zidayoq erishilishi kutilayotganini ko'rsatmoqda. Bu yurtimizda yuritilayotgan oqilona siyosat hamda xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining yorqin nishonasidir. Endilikda kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanmoqda. Ushbu ulkan marra barcha sohalar bo'yicha yangicha yondashuvni, yanada yuksak mas'uliyat va safarbarlikni talab etishi tabiiydir.

Demografik jarayonlar ham strategik rejalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etayotgan omillardan biri sanaladi. 2023-yilda aholimiz soni 36,7 million nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilga borib 41 millionga yetishi prognoz

qilinmoqda. Aholi sonining o'sishi katta ne'mat, ayni paytda ulkan mas'uliyat hamdir. Yangi tug'ilgan har bir chaqaloq ertaga bog'cha, maktab, oliy o'quv yurti, ish o'rni va munosib turmush sharoitiga ehtiyoj sezadi. Shu bois, yangi maqsadlarni aynan shu o'sishni inobatga olgan holda belgilash bugungi kunning eng muhim va dolzarb talabidir. Biz nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimizni ham chuqur his etmog'imiz lozim.

Yaratilayotgan imkoniyatlar va erishilayotgan yutuqlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Ularning zamirida tinimsiz izlanishlar,

xalq dardini his qilishdek yuksak insoniy fazilatlar yotibdi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasi ishlab chiqilib, Iqtisodiyot, sanoat va savdo vazirliklarining hamda regulation.gov.uz platformalarida jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi.

Bu platformalar fuqarolarga o'z yurtining kelajagiga daxldorlik hissinii tuyish, taklif va mulohazalarini bildirish imkonini beradi. Zero, vatan ravnaqi uchun qayg'u'rish, uning ertangi kuniga hissa qo'shish barchamizning fuqarolik burchimiz va insoniy vazifamizdir.

Ziylol sifatida aytishim mumkinki, har qanday buyuk asar muallif va kitobxon o'rtasidagi muloqot mahsulidir. Xuddi shunday, buyuk davlat ham rahbar va xalq o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik asosida bunyod etiladi. Bugun biz guvohi bo'layotgan jarayonlar, ya'ni strategiyaning xalq muhokamasiga qo'yilishi millat va davlat o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy shartnomaning yangilanishi, maqsadlar mustarakligining ifodasidir. Xalqimizning donishmandligi, uzoqni ko'ra bilish salohiyati ushbu hujjatning yanada mukammal, hayotiy va xalqchil bo'lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Yangi tahrirdagi strategiyada inson qadri, uning huquq va manfaatlari, farovon turmushi bosh mezon sifatida belgilangani quvonarlidir. Iqtisodiy o'sish raqamlari ortida inson omili, uning baxtu saodati turishi lozimligi mavjill ushbu hujjatning ruhiga singdirilgan. Kambag'allikni yanada qisqartirish, ta'lim va

tibbiyot sifatini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, adolati jamiyat qurish kabi vazifalar strategiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangani xalqimizning ko'nglidagi gaplar bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi davrda jahon tartiboti o'zgarib boshlagan, qudratli davlatlar orasida turli ziddiyat va ochiq kelishmovchiliklar avj olgan bir paytda O'zbekistonning tinchliksevar, ochiq tashqi siyosati hamda ichki barqarorligi tahsiga loyiq noyob hodisadir. Aynan shu barqarorlik omili tufayli biz uzoqni ko'zlagan strategik rejalarni nafaqat tuzish, balki ularni muddatidan avval ro'yog'ga chiqarish, dadil qadamlar tashlash imkoniyatiga ega bo'lmoqdamiz.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasining yangilanishi jarayonida ma'naviy-ma'rifiy jabhalarga, xususan, milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarini asrab-avaylash masalalariga yanada chuqurroq urg'u berilishi ayni muddaodir. Negaki moddiy farovonlik qanchalik yuksalmasin, agar ma'naviyat oqsasa, jamiyatda to'ldirib bo'lmaz bo'shliq paydo bo'lishi muqarrar. Shu bois, yangi tahrirdagi hujjatta moddiy va ma'naviyat uyg'unligi, inson kapitalini rivojlantirish masalasi islohotlarning “qizil ipi” bo'lib o'tishi shart.


Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan ayni damlarda har bir soha vakili, xususan, biz, ziyolilar o'zimizga “Men vatanim rivoji uchun bugun nima qildim?” degan savolni qayta va qayta berishimiz joiz. Strategiyani takomillashtirish bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini shunchaki

rasmiyatchilik uchun emas, balki har bir fuqaroning mamlakat taqdiriga daxldorlik hissinii oshirish, xalqning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatini yagona maqsad sari safarbar etish uchun xizmat qiladi. Jadid bobolarimizning “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan o'lmas g'oyalari bugungi kunda yangicha ma'no va mazmun kasb etib, islohotlarimizning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Bizning oldimizda turgan vazifa nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish, balki dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning yangi, zamonaviy va intellektual salohiyatga boy qiyofasini yaratishdan iboratdir.

Shuningdek, globallashtirish jarayonlari shiddatli tus olgan, axborot oqimi tezlashgan bugungi zamonda yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar sirlaridan voqif etish masalasi muhim ahamiyatga ega. Chunki 2030-yilga borib aynan bugungi yoshlar mamlakatimiz taraqqiyotining lokomotiviga, hal qiluvchi kuchiga aylanadi. Ularning bilimi, dunyoqarashi va vatanparvarligi strategiyamizda belgilangan yuksak marralarga erishishning asosiy garovi bo'ladi. Shu ma'noda, strategiyaning qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimizni chuqur anglagan holda tashlangan oqilona va tarixiy qadamdir. Zotan, bugun xalqimiz bilan bamaslahat ekilayotgan islohot urug'lari ertaga farovonlik va buyuk taraqqiyot mevasi bo'lib qaytishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimizning Murojaatnomasi va “O'zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilishi davr talabi, xalq xohishi-irodasi va taraqqiyot qonuniyatining in'ikosidir. Biz yangi O'zbekistonni bunyod etishdek sharaflar va mas'uliyatni yo'lda sobitqadamlik bilan olg'a bormoqdamiz. Kelgusi besh yillik taraqqiyotimizga daxldor ushbu hujjatning mukammal bo'lishi, unda yurtdoshlarimizning orzu-intilishlari aks etishi uchun faol bo'laylik. Zero, O'zbekiston — barchamizning umumiy uyimiz, uning kelajagi, ravnaqi va farovonligi har birimizga bog'liq. Tarixiy imkoniyatlar eshigi ochilgan bir paytda bilalishib, hamjihatlikda harakat qilsak, ko'zlagan ulkan marralarimizga albatta erishamiz. Bu yo'lda bizga uzoqni ko'zlab yuritilayotgan oqilona siyosat, xalqimizning azmu shijoati va yaratuvchanlik qudrati mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. Kelajak bugundan boshlanadi, uning qanday bo'lishi esa o'z ko'limizda.

GLOBAL INVESTITSIYALAR MARKAZI



Adiba SAFAROVA,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti bosh ilmiy xodimi

► Boshlanishi 1-betda

Qayd etish kerakki, strategiyada belgilangan maqsadlarning jadal amalga oshirilishi natijasida ilgari 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan yalpi ichki mahsulot hajmiga 2026-yilning o'zidayoq erishish imkoniyati yaratildi. Endilikda oldimizga yangi va yanada yuksak marra qo'yilib, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirish vazifasi belgilanmoqda. Bu esa O'zbekistonning yaqin yillarda daromadli o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishini anglatadi.

Yangilanayotgan strategiyada investitsiyalarni jalb qilishda faqat hajm emas, balki ularning iqtisodiyot tarmoqlari uchun samaradorligi, innovatsionligi va qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu

nuqtayni nazardan, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish strategiyasining hal qiluvchi drayveri va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Xususan, Prezidentimizning “Mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu tarixiy hujjat bilan tasdiqlanadigan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini yillik o'rtacha 7 foizga oshirish vazifasi aniq belgilanmoqda.

Bu ko'rsatkichga investitsiya muhitini yanada yaxshilash, investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish orqali erishilishi shubhasiz. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlantirilgan mamlakatlarda xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar o'sish sur'ati odatda yillik 5-10 foiz atrofida bo'ladi. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun 7 foizlik yillik o'sish maqsadi xalqaro amaliyotga to'liq mos, real va erishish mumkin bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi.

Shuningdek, takomillashtirilayotgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan muhim



BUGUNNING GAPI

tashabbuslar ham o'rln olgan. Xususan, 40 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini “Xalq IPO”siga chiqarish vazifasi ko'zda tutilgan.

Mazkur vazifaning amalga oshirilishi natijasida aholining bo'sh turgan mablag'lari iqtisodiyotga faol jalb etilib, yurtdoshlarimiz

yirik sanoat korxonalarining daromadidan to'g'ridan to'g'ri ulush olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu “har bir fuqaro — investor” tamoyili asosida umumimilliy farovonlikni oshirishga xizmat qiladigan ijtimoiy adolat namunasidir.

Bundan tashqari, strategiya loyihasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy

qiymati 150 milliard dollarlik 400 dan ziyod strategik ahamiyatga ega texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu megaloyihalar sanoatni texnologiyaga, transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Ushbu strategik, xususan, kelgusi besh yilda 180 milliard dollarlik xorijiy investitsiya loyihalarining to'liq ishga tushirilishi natijasida respublikamizda yuqori daromadli 1 million yangi ish o'rni yaratiladi.

Sanoatning texnologik jihatdan yangilanishi eksport salohiyatini keskin oshirib, 2026-yilning o'zida eksport ko'rsatkichini 40 milliard dollarga yetkazish hamda eksportda tayyor va yarim tayyor mahsulotlar

ulushini 55 foizdan oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, zamonaviy infratuzilma va barqaror energetika tizimi barpo etilib, hududlar qiyofasi tubdan o'zgaradi, aholi uchun qulay va zamonaviy yashash sharoitlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan mazkur investitsiya loyihalarining asosiy yo'nalishlari ham belgilab berildi. Xususan, Murojaatnomada investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish

maqsadida bundan buyon har bir dollar investitsiya, eng avvalo, ilg'or texnologiyalar va ularning transferiga, tashqi bozori aniq, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilishi kerakligi qat'iy qayd etildi. Bu yondashuv mamlakatimizda “bilimlar iqtisodiyoti”ni rivojlantirish, yoshlarimizning zamonaviy kasblarni egallashi va inson kapitalining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamindir.

Huquqiy siyosat nuqtayi nazaridan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish vazifasi milliy quvonchilikni nafaqat liberallashtirish, balki uni investorlar uchun eng qulay va kafolati tizimga aylantirishni taqozo etadi. Xususan, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlaydigan, byurokratiyadan xoli bo'lgan alohida yangi institutsional tizimning huquqiy poydevorini yaratish muhim.

Shu o'rinda, quvonchlikda “strategik investor” maqomini va uning mezonlarini aniq mustahkamlash, ularga nisbatan barqaror huquqiy rejim, soliq va bojxona preferensiyalarini qo'llash hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar raqamlashtirilishini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, investorlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlarga mos keluvchi mexanizmlar, jumladan, xalqaro arbitraj institutlarini milliy huquq tizimiga integratsiya qilishni yanada takomillashtirish investitsiya muhitining ishonchilligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish yangilanayotgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasining markaziy g'oyalardan biri, u iqtisodiy o'sish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonni nafaqat investitsiyalar makoniga, balki odamlar yashashi va ishlashi uchun eng qulay, farovon va barqaror mamlakatga aylantiradi. Bugun O'zbekistonga kiritilayotgan har bir samoviy bu — porloq va kafolatlangan kelajakka tikilgan eng to'g'ri qadamdir.



Yo'ichi RO'ZIYEV,
Renessans ta'lim universiteti
axborot texnologiyalari kafedrasida
katta o'qituvchisi

XXI asr insoniyat hayotiga axborot asri sifatida kirib keldi. Uning chorak qismi ortda qolgan bir davrda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va mobil platformalar jamiyat tafakkurini tubdan o'zgartirib yuborganiga guvoh bo'lib turibmiz. Avvallari axborot cheklangan manbalar orqali tarqalgan bo'lsa, bugun u uzluksiz, chegarasiz va nazoratsiz ko'rinish oldi. Inson har kuni minglab xabarlar, tasvirlar va fikrlar bilan to'qnash kelmoqda. Ushbu holat axborotning o'zi qanchalik muhim ekanini ko'rsatish bilan birga uni anglash madaniyati naqadar zarur ekanini ham namoyon etayotir.



Inchunin, axborot tezligi tafakkur tezligidan ilgari ketayotgan bir sharoitda jamiyat oldida yangi muammo paydo bo'ldi. Bu muammo axborot yetishmasligi bilan bog'liq bo'lmagan, aksincha, uning haddan tashqari ko'pligi bilan kechadigan murakkablikdan kelib chiqadi. Ya'ni ana shunday sharoitda axborot saralanmasa, tahlil qilinmasa, kontekstdan uzib qabul qilinsa, u rivojlanishga xizmat qilmaydi, balki ongni charchatib, fikrni tarqoq qiladigan, bu orqali ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradigan vositaga aylanishi ehtimoli yuqori.

Shu bois, yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida axborot omiliga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Davlat boshqaruvida ochiqlik, jamoatchilik bilan muloqot, raqamli xizmatlarni kengaytib borayotgan bir vaziyatda axborot bilan ishlash madaniyati jamiyat barqarorligining muhim shartidir. Ayni shu nuqtada mediasavodxonlik masalasi

umumijtimoiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan masala sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda insonni axborotdan himoyalash haqida gap ketmayapti. Masala insonda axborotni to'g'ri va ongli ravishda qabul qilish hamda mas'uliyat bilan tarqatish qobiliyatini shakllantirishda.

Axborot bilan ishlash madaniyati muayyan qoidalar va bosqichlar asosida shakllanadi. Bu jarayon tartibsiz yoki tasodifiy bo'lib qolsa, axborotning ijtimoiy qiymati yo'qoladi. Shu bois, u bilan ishlashda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir necha muhim bosqich ajratib ko'rsatiladi:

— birinchi bosqich — axborotni qabul qilish. Bu yerda insonning e'tibori va ongli tanlovi muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday xabarni qabul qilishdan avval uning manbasini, vaqti va mazmuni haqida o'ylab ko'rish zarur. Axborot oqimi ichida tanlov qila olish qobiliyati shakllanmagan shaxs ko'pincha hissiy bosim ta'sirida qolib ketadi;

— ikkinchi bosqich — tahlil jarayoni. Tahlil axborotni yuzaki qabul qilishdan chuqur anglashga olib boradi. Bu bosqichda xabar mazmuni boshqa manbalar bilan solishtiriladi, kontekst hisobga olinadi, muallif pozitsiyasi aniqlanadi. Tahlil jarayoni tanqidiy fikrlashni shakllantiradi va ongli qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi;

— uchinchi bosqich esa axborotni tarqatish bilan bog'liq ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda har bir foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlarda o'z auditoriyasiga ega. Shu sababli har qanday axborotni tarqatishdan oldin uning ijtimoiy ta'siri haqida o'ylash zarur;

— to'rtinchi bosqich — o'rtiqcha va zararli axborotdan ongli ravishda chekinish madaniyati. Har qanday axborot foydali bo'lavermaydi. Ba'zi xabarlar inson ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayrimlari esa ongni chalg'itadi. Shu bois, axborot bilan masofani saqlay bilish, raqamli muhitda o'z chegarasini belgilash mediasavodxonlikning muhim belgisidir.

Ushbu bosqichlar uyg'un holda shakllanganda jamiyatda sog'lom axborot muhiti yuzaga keladi. Bu muhitda axborot taraqqiyotga xizmat qiladi, inson ongini boyitadi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Raqamli makon jamiyat tuzilmasini o'zgartiribgina qolmay, shaxsning ijtimoiy rolini ham yangicha shaklga keltirdi. U insonni tezkor reaksiyaga undaydi, bu esa fikr yetilishidan oldin xulosa chiqarishga olib keladi. Shu jarayonda chuqur mushohada va xolis tahlil chekinadi, natijada axborot hissiy vositaga aylanib, ongli tahlil ikkinchi darajaga suriladi. Manipulyatsiya mexanizmlari aynan shu nuqtada ishga tushadi. Sarlavhalar bilan qo'rquv uyg'otish, turli tasvir vositalari yordamida hissiy bosim yaratish,



MULOHAZA

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



MEDIASAVODXONLIK

SOG'LOM TAFAKKUR MUHITINI YARATADI

AXBOROT MADANIYATINI YUKSALTIRISH
ORQALI YANGI O'ZBEKISTON O'Z AXBOROT MAKONIDA
MILLIY MANFAATLARNI HIMOYA QILADI VA KELAJAK
AVLOD UCHUN SOG'LOM TAFAKKUR MUHITINI YARATADI.
USHBU JARAYON UZLUKSIZ, MAS'ULIYATLI VA IZCHIL YONDASHUVNI TALAB ETADI.



yarim haqiqatlar orqali umumiy kayfiyatni yo'naltirish kabi usullar keng qo'llanayotganini hammamiz ko'rib, kuzatib turibmiz.

O'zbekistonda axborot makoni so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Raqamli platformalar soni ortdi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi, axborot almashinuvi ochiqlik kasb etdi. Bu jarayon jamiyat uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab sinovlarni ham yuzaga chiqarishini yodda tutishimiz lozim. Negaki yutuqlar bilan birga bu sohada ayrim muammolar ham hali-hamon mavjud ekanidan ko'z yumib bo'lmaydi. Jumladan, ta'lim tizimidan mediasavodxonlik masalasi hali yetarli darajada mustahkam o'rin egallagani yo'q. Ayrim fanlar doirasida axborot bilan ishlashga oid mavzular borligiga qaramay, bu

yondashuv tizimli tus olmagan. Shuningdek, milliy axborot makonidagi muhim masalalardan biri sifatli kontent bilan bog'liq. Chet tillardagi axborot oqimi ko'pincha ustunlik qilmoqda, mahalliy muhitda esa chuqur tahlilga asoslangan, madaniy kontekstni hisobga olgan materiallar yetishmovchiligi sezilyapti. Dezinformatsiya va soxta xabarlar ham jiddiy muammolardan. Tekshirilmagan ma'lumotlarning tez tarqalishi jamiyatda ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytiradi, ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda faqat texnik cheklovlar yetarli samara bermaydi. Asosiy e'tibor inson ongida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilishi zarur.

Mamlakatimizda keyingi vaqtda milliy kontent yaratish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani ham ayni mana shu masalalar

bilan bevosita aloqador. Zero, o'zbek tilidagi sifatli mediamahsulotlar sonini oshirish, zamonaviy formatlarda chuqur tahliliy materiallar yaratish, yoshlar auditoriyasiga mos bo'lgan vizual va interaktiv kontentni rivojlantirish bugungi kun talabidir. Milliy kontent esa zamonaviylikdan uzilgan holda yashay olmaydi. U raqamli muhit talablariga moslashgan, shu bilan birga, tarixiy xotira va madaniy asoslardan uzilmagan shaklda rivojlanishi zarur.

Jahon tajribasi ko'rsatadiki, mediasavodxonlik masalasi uzoq muddatli strategiya, institutsional yondashuv va davlat siyosati bilan uyg'unlashgan tizimni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarda mediasavodxonlik ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlik bilan bog'liq yo'nalish sifatida qaratiladi.

Asosiy, mediasavodxonlikni rivojlantirish bir martalik loyiha yoki qisqa muddatli kampaniya bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Eng avvalo, ta'lim tizimi ushbu strategiyani asosiy tayanch nuqtasiga aylantirishi zarur. Axborot bilan ishlash madaniyati yoshligidan shakllanmagan shaxs keyinchalik uni osonlik bilan egallay olmaydi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar ham mazkur jarayonda faol ishtirok etishi lozim. Axborot sifati, tahliliy yondashuv, mavzularni chuqur yoritish jamiyatda ishonch muhiti mustahkamlaydi. Shu bilan birga, jurnalist va kontent yaratuvchilarning kasbiy mas'uliyati yuqori darajada bo'lishi axborot makonining umumiy darajasini belgilaydi.

Huquqiy mexanizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlarining oldini olish, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilash ushbu yo'nalishning ajralmas qismidir. Ayni chog'da huquqiy choralar ongli yondashuv bilan uyg'unlashgandagina kutilgan natijani beradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, ziyolilar va jamoatchilik mediasavodxonlikni rivojlantirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Jamiyatda fikrga talabchanlik, axborotga talab munosabat bildirish, shoshilinch xulosalardan tiyilish madaniyati shakllansa, axborot muhiti sog'lomlashadi. Bu jarayon yuqoridan pastga buyuq bilan joriy etilmaydi, u ijtimoiy ongda bosqichlarga-bosqich mustahkamlanadi.

Axborot madaniyatini yuksaltirish orqali yangi O'zbekiston o'z axborot makonida milliy manfaatlarini himoya qiladi va kelajak avlod uchun sog'lom tafakkur muhiti yaratadi. Ushbu jarayon uzluksiz, mas'uliyatli va izchil yondashuvni talab etadi. Aynan shu yo'l jamiyatning barqaror rivoji va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Bolalarning kelajagi, farovonligi va xavfsizligi davlat uchun ustuvor vazifalardan. Har bir bola mehr, himoya va e'tiborga loyiq. Ularning huquq va erkinliklari ta'minlanishi esa ijtimoiy barqarorlik asosidir. Mamlakatimizda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalaridan kelib chiqqan holda bolalar huquqlariga doir milliy qonunchilik bazasi yaratilgan. Xususan, bolalarni zo'ravonlikning barcha shaklidan himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish masqasida O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mamlakatimiz Bogota harakatlar chaqiruviga qo'shildi hamda Bolalarga nisbatan zo'ravonlikka chek qo'yish bo'yicha global alyansga a'zo bo'ldi.



Xalqimiz tabiatiga xos yuksak insoniy fazilatlarining oliy ko'rinishi sifatida Konstitutsiyamizda ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyati alohida ko'rsatilgan. Davlat va jamiyat ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan va yetim bolalarga g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olishi qayd etilgan. Onalik va bolalik davlat muhofazasida ekanini kafolatlangan.

Bolalarga zo'ravonlik kam uchraydigan holat emas. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili bir milliarddan ortiq o'g'il-qiz jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchraydi. Achinarlisi, buning oqibati bir umr davom etishi mumkin.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil 17-dekabr kuni ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish hamda bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan takliflar bilan tanishdi.

Prezidentimizga 2026–2030-yillarda bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiya to'g'risida axborot berilgandi.

Strategiyada bolalar uchun zo'ravonlikdan xoli muhit yaratish, zo'ravonlik xavfi ostidagilarni barvaqt aniqlash hamda jabrlanuvchi yoki guvoh bo'lgan o'g'il-qizlarga kompleks xizmat ko'rsatish asosiy maqsad qilingan.

Prezidentimiz bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy himoya va bolalarni himoya qilish sohalarida tizimli yondashuvni ta'minlash, ko'zda tutilgan chora-tadbirlar ijrosini doimiy nazoratda ushlab bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar bergan edi.

Shu maqsadda davlatimiz rahbarining "2026-2030-yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

farmoniga binoan yangi tartiblar, huquqiy mexanizmlar belgilandi.

Shuningdek, farmon bilan 2026-2030-yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi va bu strategiyani 2026-2027-yillarda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Strategiyadan asosiy maqsad yurimizda har bir bola uchun xavfsiz muhit yaratishdir. Ya'ni bu borada bolaning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko'zda tutilgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo'lim boshlig'i Laylo Fayzimurodova.

Strategiya olti yo'nalishdan iborat. Bular to'g'ridan to'g'ri voyaga yetmaganlarni nafaqat jamiyatda, balki ularning protsessual,

oiladagi huquqlarini ta'minlash hamda xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Shuningdek, zo'ravonlikdan jabrlangan va zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostidagi bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtirokini kengaytirish, zo'ravonlik holatlari bo'yicha doimiy yangilab boriluvchi yagona ma'lumotlar bazasini yaratish hamda zo'ravonlik holatini baholash va monitoring qilish jarayonlari muvofiqlashtiriladi.

2026-yil 1-fevraldan boshlab zo'ravonlik natijasida oilasidan olingan va zo'ravonlik xavfi ostida bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi bolalar uchun professional tutingan oila xizmati yo'lga qo'yiladi. Bunda

professional tutingan oilani tashkil etishga nomzodlar ijtimoiy-reabilitatsiya dasturlari asosida o'qitiladi.

Zo'ravonlik natijasida oilasidan olingan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar professional tutingan oilaga "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mazkur oilalar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida joylashtiriladi. Professional tutingan oilaga joylashtirilgan har bir bolani parvarishlash uchun har oyda Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan mehmatga haq to'lash eng kam miqdorining 2 baravari qiymatida pul to'lab boriladi.

Dastlab Qashqadaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, yil yakuniga qadar respublikaning boshqa hududlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida kichik hajmli ijtimoiy ko'mak markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

2026-yil 1-sentabrden boshlab esa zo'ravonlikdan jabrlangan va zo'ravonlikka guvoh bo'lgan bolalarga, ular tegishli protsessual xatti-harakatlarga jalb etilgan vaqtdan e'tiboran, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladi. Bolalarga nisbatan ularning qonuniy vakillari yoki boshqa qarindoshlari tomonidan zo'ravonlik holatlari bo'yicha ishini sudga qadar yuritish va sud muhokamasi jarayonidagi barcha protsessual harakatlarni amalga oshirishda vasiylik va homiylik organi vakili majburiy tartibda ishtirok etadi.

Hujjatga muvofiq, Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi va Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasi tugatiladi. Davlat muassasasi shaklida Bolalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya markazi hamda uning Samarqand, Farg'ona, Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi hududiy bo'linmalari ochiladi.

Joriy yil 1-martdan boshlab "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ota-onalari uchun "mehrlil oila" xizmati yo'lga qo'yiladi. Bu xizmat Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Bolalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiya markazi tomonidan tashkil etiladi. Unga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) komissiyalarining qarori asosida jalb qilinadi.

"Mehrlil oila" xizmatiga jalb qilingan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga farzandlarining psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda bolalarning oilasi bilan buzilgan munosabatlarni tiklash va ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashish uchun "oilaviy terapiya" xizmatlari bepul ko'rsatiladi.

Yangi tartibga ko'ra, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi bolalar ularning xulq-atvori, iqtidor va qiziqishlarini inobatga olgan holda tegishli ta'lim tashkilotlariga Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasi qaroriga ko'ra hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligining yo'llanmasiga muvofiq joylashtiriladi. Bunda bolalar ta'lim tashkilotlariga bepul asosda, sinovlar va qo'shimcha imtihonlarisiz qabul qilinadi.

Joriy yil 1-aprelga qadar Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar hamda zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil shaxslar haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan yagona elektron platforma ishlab chiqiladi.

Platforma davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari hamda "112" qisqa raqam orqali fuqarolarning chaqiruvini qabul qilish va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash imkonini beruvchi yagona dispetcherlik xizmati bilan "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo platformasi orqali integratsiya qilinadi.

Bu borada ota-onalarning ota-onalik ko'nikmalarini rivojlantirish, oilalarning iqtisodiy holatini yaxshilash va qo'llab-quvvatlash orqali bolalarga oilaviy zo'ravonlik, jumladan, kamqatiz munosabatda bo'lish holatlarini hamaytirish juda muhim. Shu maqsadda ijobiy tarbiya modeli bo'yicha dasturlar, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning ko'nikmalarini oshirish bo'yicha bolalarni oiladan ajratish va oilada bolalarga shafqatsiz munosabatda bo'lish, shuningdek, bolalarning oilaviy zo'ravonlik, bolalar o'rtasida zo'ravonlik xatti-harakatlarining guvohi bo'lishining oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kuni kecha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Salim Doniyorov ishtirokida bir guruh yosh ijodkorlar, uyushma a’zolari bilan adabiy-ma’rifiy suhbat bo‘lib o‘tdi. Muloqot bugungi adabiyot oldida turgan dolzarb masalalar, ijodkor zimmasidagi mas’uliyat va milliy birlik g‘oyasi kabi mavzular atrofida kechdi.

UMUMIY BIRDAMLIKKA CHORLOVCHI IJOD NAMUNALARIGA EHTIYOJ BOR!




Adabiyot — beqiyos qudrat. U inson ong-tafakkuri, his-tuyg‘usi va ma’naviy olamiga bevosita ta’sir etadi. Badiiy saviyasi yuksak she’r, hikoya va boshqa ijod namunalaridan inson estetik zavq oladi, qalbida yangi shijoat uyg‘onadi, hayotga qarashlari boyiydi. Ezgu g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlar insonni yuksak maqsadlar sari yetaklaydi, yaxshilik va bunyodkorlikka ilhomlantiradi.

Bugun jamiyatimizga aynan qalblarda yurtga muhabbat, elga sadoqatni jo’sh urdiradigan, daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlaydigan, g‘ayratimizga g‘ayrat qo’shib, fidoyilikka undaydigan, milliy ruhni uyg‘otib, birlikka chorlaydigan ijod namunalariga ehtiyoj katta. Shu bois, adabiyotimiz namoyandalari oldida mas’uliyatli va sharafli vazifa turibdi. Yozuvchilar uyushmasida o‘tgan mazkur uchrashuv aynan shu muhim masalalarga bag‘ishlandi.

Tadbirda tahdidlar kuchaygan, dunyo tobora murakkablashib borayotgan bir pallada xalqimiz

ro’yobga chiqishi yo’lida ko‘rsatilgan matonat har qanday e’tirofga munosib. Aynan shunday paytda kim ekanimizni, tarixiy ildizlarimiz, yuksak g‘urur va shijoatimizni aks ettiradigan ijod namunalariga ehtiyoj har qachongidan-da ortib bormoqda. Ruhi baland she’rlar, saviyali qo’shiqlar yurtimiz sharafiga himoya qilayotgan sportchilarimizga kuch bag‘ishlashi barobarida jahon hamjamiyatiga xalqimizning qanday marallarni zabt etishga qodir ekanini ham baralla namoyon qilishi lozim.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqlar va televideniya yig‘loqi ohanglar, sayoz mazmundagi kuy-qo’shiqlar, saviyasi past “san’at asarlari” ko‘payib borayotgani sir emas. Shunday sharoitda haqiqiy qalam sohiblarining xalqni uyg‘otadigan, birdamlikka, ulkan maqsadlar sari chorlaydigan asarlariga ehtiyoj tobora ortmoqda. Tadbirda ayni shu masalalar yuzasidan fikr almashilib, ijodkorlar o‘zaro ijodiy hamkorlikka chorlandi, ularni qo‘llab-quvvatlash va munosib sharoitlar yaratish



ongi va qalbiga ezgu g‘oyalar bilan yo‘l topa oladigan asarlar yaratish davr talabi ekani qayd etildi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz erishayotgan yutuqlar tilga olinganda sportdagi natijalarni alohida e’tirof etish joiz. Xususan, AQSH, Meksika va Kanada mezbonlik qiladigan futbol bo‘yicha jahon chempionatiga yo‘llanma qo‘lga kiritilgani zamirida davlatimizning sportga e’tibori, xalqimizning jipsligi, tinimsiz mehnati va sadoqati mujassam. Asriy orzuning

masalalari muhokama etildi. Zero, inson qalbidagi milliy g‘urur va daxldorlik tuyg‘usi qadriyatlar, qahramonliklar va tarixiy haqiqatlar asosida shakllanadi. Ana shu haqiqatlarni so‘z qudrati bilan avlodlar ongiga singdirish esa adabiyotning eng oliy vazifalaridan.

Rashid XO‘JAMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Zamon o‘zgarmagan, odamlar o‘zgargan, zamon o‘z joyida turibdi”, deya ko‘p takrorlardi buvim. Haligacha boshqotirmaga o‘xshash shu hikmatning mazmuniga yetolmayman: chindan ham zamon o‘zgaradimi yoki insonlar?! Nazarimda, zamon ham odamlar ham jamiyatdagi islohotlar bilan birga o‘zgarib boradi.

Insoniyat evolyutsiyasi bunga bir misol. Jamiyatning ongli rivojlanib borishi odamzodni ibtidoiy davrdan zamonaviy turmush tarziga olib kirdi. Yangi jamiyat ta’sirida yangicha fikrlar odamlar va yangi taraqqiyot paydo bo‘ldi. Davr o‘zgarishi bilan esa odamlar ham o‘zgaradi...

Qor ko‘rgan xurmolar

Har yili qish kelganda o’sha manzara yodimga tushaveradi: qalin qor yoqqan, havo juda sovuq — qo‘lni cho‘ntakdan chiqarsang, izg‘irindan muzlab qoladigan darajada. Hovlimizdagi kichik basseyin ichidagi suv shu qadar muzlagan, hatto ustida sirpanchiq uchganmiz. Daraxtlarda birorta barg qolmagan, men esa onam bilan daraxtdan xurmo teryapman!

Avvaliga bu ish qiziq tuyulib, o‘z xohishim bilan boshlagandim, ammo keyin sovuq jonimdanda o‘ta boshladi. “Nega shu xurmoni avvalroq terib olmaganimiz? Axir pishganiga ancha bo‘lgandi-ku, nimani kutganmiz?” deya ming‘irlayman. Bizni chetda kuzatib turgan buvim esa: “Xurmo bitta sovuq, qor ko‘rsa, yanada mazali bo‘ladi. Lekin hozir uzb olimmasa, sovuq uradi, shuning uchun ayni paytda uzib olib, idishlarga taxlash kerak”, deydi. Ochig‘i, bundagi mantiqni uncha tushuna olmadim, ammo ishini hozir qilishga majburligimizni angladim.

Aslida, xurmo kuz faslining o‘rtalarida pishadi. Men aytayotgan vaqt ham o’sha kezlarga to‘g‘ri keladi. U paytlarda kuz ham xuddi qishdek bo‘lardi, buni ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Oktabr oylaridanoq qattiq sovuq tushib, yog‘ingarchilik boshlanar va bu holat to Navro‘zgacha davom etadi. Qishda esa hozirgidek iliq harorat qayoqda deysiz, tizza bo‘yi qor yog‘ib, izillatib yuboradi. Aksiga olib, bu sovuq kunlarni o‘tkazish azob edi: gaz bosimi pasayib, elektr tinimsiz o‘chardi. Uylarni isitish tashvishi bilan yashardik. Issiq kunlarga chiqib olish ilinji ortgani sari sovuq ham cho‘zilaveradi.

Xullas, xurmoni amallab terib oldik. Xayolimda “Shu ish tezroq bitsa-yu, issiqqina sandalga kirib, o‘ranib olsam”, degan o‘y. Ammo qayoqda, endi daraxt tagiga tushgan shox-shabbalarni supurish vazifasi turardi. Qatnax xarxasha qilmay, onam bu ishni qiziqroq tugatishimni kerakligini, keyin dam olishim mumkinligini aytdi. Eng qizig‘i, xurmolarini bo‘sh turadigan xonaga olib kirganimizda sodir bo‘ldi. Onamdan “Endi mevalarni shu yerdan olib yeyishimiz mumkinmi?” deb so‘raganimda, eshitgan javobim muzlagan tanamni birato‘la qotirib qo‘ydi. “Bular endi issiqda turib, g‘arq pishishi kerak, qishning o‘rtalariga borib yesak bo‘ladi”, deya buvim ikkisi mevalarni plyonkaga o‘rab-chirmab tashladi. Boyagina sovuq ko‘rgan xurmolar yaxshi pishishini aytishayotgandi, endi esa bu gap... Baribir tushunmadim!

O‘ylab qolaman: o’sha paytlarda biz o‘z hayotimizni o‘zimiz qiyinlashtiramidik yoki shunga majburlidik? Nega oddiy narsalar ham biz uchun bunchalik murakkab edi? Bugun yeyish kerak bo‘lgan narsani

ertaga olib qo‘yishga, istaklarimiz ham chegaradan chiqmasligiga, hamma narsadan o‘zimizni tiyib yashashimizga qanday sabab bor edi? Hozir biz kundalik iste’mol qiladigan narsalarning ba’zilarini o’sha vaqtlari ko‘p oilalar faqat bayramlardagina ko‘rishni men uchun doim achinarli bo‘lgan. Aksariyat odamlar orzu-havas bilan emas, kun ko‘rish uchungina yashardi. Gap faqat moddiy imkoniyatda emas, shunga yarasha sharoitlarning yo‘qligida edi.

Aqlimni tanib qolganim bois, nega yaxshiroq yashashimiz uchun eng oddiy sharoitlar yo‘qligi, nega har yili qishda bir xil manzara takrorlanishi va bu mavsum kelishidan bezillab turishimiz, oylab sovuq uylarda yashashga majbur bo‘lishimiz



haqida ko‘p o‘ylardim. Ayniqsa, odam hatto tashqariga chiqishga erinadigan bunday sovuqda onam hovlida turib, o‘choqda taom pishirishga majbur bo‘lishi jahlimni chiqarardi. Ochig‘i, oshxonamizda hamma sharoit muhayyo, eng zamonaviy gaz plitasi turardi, ammo unda ovqat pishirish uchun gaz bosimi yetarli emasdi. Mahalladagi ba’zi olg‘irlar noqonuniy yo‘l bilan o‘ziga ko‘proq gaz bosimini oshiradigan uskuna qo‘yganiini aytmasa, deyarli hamma xonadonda shu ahvol hukmron edi. Toshkent viloyatining shaharga eng yaqin qismida yashaydigan biznikida vaziyat shunday bo‘lgandan keyin boshqa viloyatlarni tasavvur qilavering.

Bir kuni elektr o‘chdi va salkam uch kun yonmad. Hozir o‘ylasam, qo‘rqib ketaman: shunday sovuq havoda uch kun elektrsiz yashaganmiz-at! “Ana keladi, mana keladi” ilinji bilan uch kun o‘tdi. U gap ham odamlarning mish-mishi edi, aslida, hech kim bu borada na ma’lumot, na izoh berardi. Transformator kuyib ketgani va uni tuzatishayotganini taxmin qilib o‘tirardik. Nari borsa, mahalladagi biror abjir odamdan so‘rab bilardik vaziyatni. Kunda-kunora chiroq o‘char, sabab ham tayyor — transformator ortiqcha yuklamani ko‘tara olmayapti. Kelib uni tuzatish esa kimningdir esiga kelgunicha chiroqsiz o‘tirardik. Mahallaning bir necha odamlari tuman elektr tarmoqlari binosiga borib, janjal qilib kelgani haqida ham eshitib qolardik. Shunda ham kamdan-kam holda natija bo‘lardi.

Butun dunyoda zamonaviy texnika rivojlanib borayotgan bir pallada biz shular bilan ovora edik. Televizorda elektromobillar yaratilayotgani haqida ko‘rsatuv tomosha qilganim hamon yodimda. O’shandayoq shunday avtomobilni boshqarishni orzu qilganman, ammo bu texnika ham bizga bir asrdan keyin yetib kelsa kerak deb o‘ylagandim. Axir odamlar oddiy avtomat kir yuvish mashinasidan foydalanishni orzu qiladigan vaqtlar edi. Biror xonadonda kompyuter yoki avtomat kir yuvish mashinasi, yoxud elektron go’sht qiymalagich ko‘rib qolsak, og‘zimiz ochilib, o’sha uyni eng boy oila deb bilardik. Biz ham texnika asri odamlari bo‘lishimizga qaramay, onalarimiz hamon sovuqda tog‘ora-tog‘ora kimni qo‘lda yuvardi. O’sha texnikalarni olishga aksariyatimizning sharoitimiz yetardi, ammo negadir jamiyatda bunga moyillik hali shakllanmagandi.

Qulayliklar bizni dangasa qilish uchun emas...

Shularni ko‘rib, “Qachon yashash tarzimiz o‘zgararkan?” deb ko‘p o‘ylardim. Pishib, sovuq ko‘rishni kutilib, so‘ng uzib olingan, ammo iste’mol qilish zavqi ham orga surilgan xurmolarni har gal eslaganimda o’sha kunlar yodimga tushaveradi. Hayotimiz o‘zimizniki bo‘la turib, o‘zimiz istagandek yashashga

istalgan yo‘nalishdagi tizimga qo‘ng‘iroq qilib, vaziyatni bilishi, muamмага yechim topishi mumkin.

E’tibor bersak, “Odamlar dangasa bo‘lib ketgan, hamma ishini texnika bajaryapti” degan gaplarni keyingi paytlarda ancha kam eshitadigan bo‘ldik. Chunki yurtdoshlarimizning o‘zi bu qulayliklar bizni dangasa qilish uchun emas, balki vaqtimizni tejab, o‘z ustimizda ishlash, shaxsiy rivojlanish va sog‘lig‘imizga vaqt ajratishimizga xizmat qilayotganini anglab yetdi.

Inson og‘ir mehnat bilan na boyib, na sog‘lom bo‘lib qoladi. Buvilarimiz, onalarimiz qo‘lda kir yuvib, tinimsiz supur-sidir qilib, sigir sog‘ib, kerak bo‘lsa, mol-holga o‘t yulib kelib, tandirida non yopib, xullas, muttasil jismoniy mehnatda yashab, navqiron bo‘lib qolgani yo‘q. Aksincha, doimiy toliqishdan kasalliklar orttirib, o‘zi uchun yashashni unutib qo‘ydi. Bolaligimizda 40-50 yoshli ayol-erkakni ko‘rsak, 80-90 yoshga kirgan qariya deb o‘ylardik. Nazarimizda, ular uzoq yashagandek tuyulardi. Chunki 70-80 yoshga kirguncha ham o‘zgarmasdi-da. Hozir esa 50-60 yoshli kishilar ham ancha navqiron ko‘rinadi. Odamlar o‘zi uchun yashab, yosharib yurganidan quvonaman. Bu hayotimiz yengil emas, balki yaxshi bo‘lganidan, hamma narsa o‘z o‘rnida ekanidan dalolat.

Yurtimizda bugun hamma narsa inson va uning yaxshi yashashi uchun qilinaypti. Bu borada doim ayrim davlatlarni misol keltirib, ularga havas qilardik. Hozir solishtirsak, farq sezilarli kamaygan. Biz zamonaviy yashay boshladik. Istalgan vaqtda xorijga sayohat qilyapmiz. Bu faqat moddiy imkoniyat bilan bog‘liq emas, shunchaki bunga hech qanday to’siq yo‘q. Biror xizmatdan foydalanishni islasak, telefondagi ilovalar orqali bir zumda hal qilamiz. Kerakli narsalarni buyurtma qilib, eltib berish xizmatidan foydalanamiz. Yaqinda bir tanishimning bankdan mikroqarz olishi uchun 10 daqiqa ham ketmaganiga guvoh bo‘ldim. Xullas, istalgan yo‘nalishda o‘nlab misol keltirishimiz mumkin.

Bular oddiy narsalar emas, bular — biz yashayotgan jamiyatda inson uchun yaratilgan qulayliklar, yaxshi yashashimiz uchun qilingan islohotlardir.

Muddao shulki...

Maqolani inson va zamonning o‘zgarishi hamda bu jamiyatga bevosita bog‘liqligi bilan boshlagandim. Xo’sh, jamiyatni-chi, o‘zgartirsa bo‘ladimi? Albatta, bo‘ladi. Islohotlar orqali o‘zgartirish mumkin. Biz yashayotgan jamiyat bunga misol. Ana shu jamiyatga moslashib, zamonaviylashib borayotgan odamlarimiz bunga misol. Jamiyat rivojida ishtirok etayotgan har bir yurtdoshimiz bunga yaqqol dalildir. Eski tushunchalar o‘rinni egallayotgan zamonaviy qarashlar, yangicha yashash tarzi, ertaga emas, bugun yaxshi bo‘lishiga intilayotgan insonlar — buning jonli isboti.

Mamlakatimizda 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlangani ham bejiz emas. Bu 38 milliondan ortiq yurtdoshlarimizning yanada farovon yashashiga qaratilgan navbatdagi katta qadam. Oldinga qo‘yilgan maqsadlar va rejalashtirilgan ishlar ko‘lami keng. Davlatimiz rahbari Yangi yil tabrigida bunga alohida urg‘u berdi. Joriy yilda ham har bir oilaning baxtli, farovon va sog‘lom hayot kechirishi, yoshlarning sifati ta’lim olishi, kelajak kasblarini egallashi va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun yangidan yangi imkoniyatlar ishga solinishini ta’kidladi. Bunga barchamiz bir jamiyat, bir xalq bo‘lib erishamiz. Chunki yangilanishlarni o‘zimizdan boshlamay turib, jamiyatni rivojlantira olmaymiz. Biz esa shu jamiyatning bir bo‘lagimiz va har birimizni ulkan o‘zgarishlar kutmoqda.